

## ORFOGRAFIYA VA UNING TAMOYILLARI

*Andijon viloyati Shahrixon tumani*

*58-IDUM ning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

***Tojiboyeva Gulnozaxon***

**Annotatsiya:** Maqolada orfografiya nimaligi haqida, qanday bo'limlardan iboratligi, tamoyillarning turlari nima ekanligi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Orfografiya, orfoepiya, grafika, tamoyil, fonetik, morfologik, shakily-an'anaviy, differensiya.

Jamiyatning har bir a'zosidan to'g'ri so'zlay olish va savodli yoza bilish talab etiladi. O'quv muassasalari oldida turgan asosiy vazifa ham shu talab asosida kelib chiqadi. Adabiy tilning ikki shakli bo'lib, ulardan biri yozma nutqdir. Bu nutq orfografiya qonun-qoidalariga asoslanadi. Demak, orfografiya adabiy tilning yozma shakliga xos bo'lib, u tildagi o'zak-negiz va qo'shimchalarni agona tarzda to'g'ri yozish haqidagi qoidalar yig'indisidir. Demak, so'z asosi va qo'shimchasini yagona tarzda yozish haqidagi qoida tizimi, yig'indisi orfografiya deyiladi. Orfografiya adabiy tilning yozma shakliga xosdir. Orfografiya orfoepiya va grafika bo'limlari bilan uzviy bog'liqdir. O'zbek yozuvi uchun hozirgacha 2 marta imlo qoidasi tasdiqlangan. 1956-yil 4-aprelda kirill yozuviga asoslangan o'zbek tilining imlo qoidalari chiqarilgan va u 72 mavzudan iborat bo'lgan. Bu imlo qoidalari quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- Ayrim harflar imlosi;
- O'zak-negiz va qo'shimchalar imlosi;
- Qo'shma so'z va so'z birikmalari imlosi;
- Bo'g'in ko'chirilishi;
- Bosh harflarning yozilishi.

1995-yil 24-avgustda lotin yozuviga asoslangan o'zbek tilining asosiy imlo qoidalari chiqarildi va u 7 bo'lim, 82 mavzudan iborat. Bu imlo qoidalari quyidagi bo'limlardan tuzilgan:

- Ayrim harflar imlosi: unlilar imlosi, undoshlar imlosi.
- Asos va qo`shimchalar imlosi.
- Qo`shib yozish.
- Ajratib yozish.
- Chiziqcha bilan yozish.
- Bosh harflar bilan yozish.
- Ko`chirish qoidalari.

Imlo qoidalari orfografiyaning fonetik, morfologik, shakily-an'anaviy va differentsiya tamoyillari asosida ishlab chiqilgan. Fonetik va morfologik tamoyillar o'zbek orfografiyasining asosiy tamoyillaridir.

Fonetik tamoyil (fonetik usul). Bu tamoyil so`zlar, so`z tarkibidagi qo`shimchalar qanday talaffuz etilsa, xuddi o`shanday yoziladi. Bu tamoyil asosida ayrim harflar imlosi, asos va qo`shimchalar imlosidagi ayrim qoidalar ishlab chiqilgan. Masalan, son so`ziga fe'l yasovchi -a qo`shimchasi qo`shish bilan yasalgan so`z sona emas, sana tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Morfologik tamoyil o'zbek orfografiyasining asosiy va etakchi tamoyili sanaladi va yozuvda bir xillikni ta'minlaydi. Demak, morfologik tamoyilga ko`ra so`zning tovush tarkibi og`zaki nutqda qanday aytilishidan qat'i nazar o`zining morfologik shaklini o`zgartirmagan holda yoziladi. Shakliy-an'anaviy tamoyil (bu tarixiy an'anaviy tamoyil deb ham yuritiladi). Bu tamoyilga ko`ra boshqa tillardan o`zlashgan so`zlar hozir ham o`tmishdagi shakliga muvofiq yoki o`zi mansub bo`lgan tildagi shaklini o`zbek imlosida ham saqlagan holda yoziladi Differentsiya tamoyili. Bu tamoyilga ko`ra, shakli yoki talaffuzi bir xil bo`lgan so`zlar yozuvda turli shartli belgilar vositasida (yoki ba'zan ma'noga ko`ra) farqlanadi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. U.Tursunov, N.Muxtorov, Sh.Rahmatullaev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1992 yil.
2. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. II qism. Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti. 1980 yil.
4. O'zbek tilining imlo lug'ati. Toshkent. O'qituvchi. 1995 yil.